

O'ZBEKISTONDA AHOLI MIGRATSIYASI JARAYONLARINI EKONOMTERTIK TADQIQI

TMI dots. Utanov Bunyod Kuvandikovich
TMI magistranti Sirliyeva Zilola Uchqunjon qizi

Annotatsiya

Ushbu tezisda O'zbekistonda aholi migratsiya jarayonlariga ta'sir qiluvchi omillar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Migratsiya, aholi migratsiyasi, tashqi aholi migratsiya, ichki aholi migratsiya, mehnat migartsiya.

ECONOMIC RESEARCH OF MIGRATION PROCESSES OF THE POPULATION IN UZBEKISTAN

Associate Professor of TFI Bunyod Utanov Kuvandikovich
Master of TFI Zilola Sirliyeva Uchqunjon qizi

Abstract

This thesis includes factors influencing population migration in Uzbekistan.

Keywords: Migration, population migration, external population migration, internal population migration, labor migration.

Aholi migratsiyasining harakati turli xil omil va sabablarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Aholini bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishga majbur qiluvchi sabablardan eng muhimi iqtisodiy-ijtimoiy sabablar, ya'ni ishsizlik, munosib ish topish, oliy va o'rta mahsus ma'lumot olish, ya'ni o'qish ajralib turadi. Shuningdek, iqlimning salbiy ta'siri, moddiy madaniy-maishiy sharoitdan qoniqmaslik hamda oilaviy sharoitlarning ta'siri va h.k.ni sanab o'tish mumkin.

Aholining migratsion harakati asosan uch turga, ya'ni doimiy migratsiyaga, mavsumiy migratsiyaga va tebranma migratsiyaga bo'linadi. Kishilarning bir aholi punktidan boshqa bir aholi punktiga, masalan, qishloqdan shaharga yoki davlatlararo doimiy yashash joyini o'zgartirish maqsadida ko'chib yurishi doimiy migratsiyaga xos jarayondir. Doimiy migratsiya mamlakatning ichki xududida va davlatlararo bo'lishi mumkin.



Mavsumiy va tebranma migratsiya asosan ichki migratsiyaga xos xususiyat bo'lib, aholi migratsiyasining asosiy turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mavsumiy migratsiya uchun aholining vaqtinchalik xududiy harakat qilishi harakterlidir. U o'z navbatida mazmun va maqsadiga ko'ra iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy jarayonlarga xos turlarga bo'linadi.

Kishilarning bir aholi punktidan boshqa bir aholi punktiga ishlash va o'qish maqsadida har kuni yoki har haftada harakat qilishi tebranma migratsiyani tashkil etadi. Ushbu migratsiya urbanizasiya sharoitida vujudga keldi va rivojlanishi uchun imkoniyat tug'ildi. Tebranma migratsiyaning asosiy yo'nalishi qishloqdan shaharga, kichik shaharlardan katta shaharlarga bo'ladi. Aholi joylashishi bilan ishlab chiqarishni joylashtirishdagi nomutanosibliklar tebranma migratsiyaning asosini tashkil etadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvardekabr oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 191,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 203,7 ming kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldosi minus 12,5 ming kishini tashkil etdi. 2019-yilning mos davrida migratsiya saldosi minus 10,6 ming kishini tashkil etgan.¹

Hozirgi kunlarda global migratsiya jarayonida «Janubdan» «Shimolga» ko'chishning kuchayishi kuzatilmoqda. Bunda odamlarning qashshoq mamlakatlarni tark etib, boy mamlakatlarga yo'l olayotganlariga sabab bo'luvchi bir qancha muhim omillarni ko'rsatish mumkin

Xalqaro migratsiyaning yana bir turiga Xitoy Xalq Respublikasidagi migrantlar va ularga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yordam . Ўзбекистон 26 va chet mamlakatlarda ishlab kelib, Xitoy iqtisodiyotiga, ilm-faniga, katta hissa qo'shayotgan immigrantlar misol bo'la oladi. Masalan, hozir chet mamlakatlarda 30 mln. xitoyliklar bor, ularni «Xuasyao» deyiladi. Hozirgi o'z mutaxassisliklari bo'yicha malakalarini oshirib vataniga qaytib, professor va dosent bo'lib ishlayotganlar Xitoy oliygohlarida 30% dan ortig'ini tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, xalqaro migratsiyaga iqtisodiy, siyosiy, ekologik sharoit, tillarni bilish bevosita ta'sir ko'rsatdi. Demak, insoniyat tarixi bu migratsiya tarixi bilan ham chambarchas bog'liq.

¹ www.stat.uz



1- Rasm. O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning taqsimlanishi.

(2020-yil yanvar-dekabr oylarida, % da)²



Xalqaro migratsiya bilan bog'liq bo'lgan pul oqimi hajmi 100 milliardlab dollarni tashkil etadi va uni ko'lami jihatidan bemaolol yillik bevosita xorijiy investisiyalariga tenglashtirish mumkin. Emigratsiya mehnat resurslari serob bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyotiga yaxshi ishlari ta'sir ko'rsatadi, nega deganda, ishchi kuchining chet elga chiqib ketishi ishsizlikni kamaytiradi. Chunonchi, 70- yillarda Misr hukumati ishsizlikka qarshi kurash dasturini qabul qilar ekan, unda Fors ko'rfazi mamlakatlariga bo'ladigan emigratsiyalash, rag'batlantirish choralarini ko'zda tutgan. Puerto-Rikoda eng kam ish haqi qonun bo'yicha ishchi kuchining loaqal uchdan bir qismi AQShga ketishi mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarning asosiy qismi Qozog'iston Respublikasi (jami xorijdan ko'chib kelganlarga nisbatan 37,0 %), Rossiya Federatsiyasi (22,3 %), Tojikiston Respublikasi (20,0 %), Qirg'iz Respublikasi (8,5 %), Turkmaniston (1,3 %) va boshqa mamlakatlar (10,9 %) hissalariga to'g'ri keladi.³

O'zbekistonda migratsiya jarayoni butunlay o'zgardi. O'zbekistondan rusiyzabon va boshqa millatlarning ko'chib ketishi, aksincha O'zbekistonga qo'shni respublikadan o'zbeklarning ko'chib kelish tendensiyasi kuchaya boshladi. Hozirgi kundagi tashqi migratsiyaning manfiy qoldig'ini asosan Yevropa millatlariga xos bo'lgan aholi tashkil qilmoqda. Masalan, 1991-1999 yillarda O'zbekiston shahar aholi manzilgohlaridan 356,8 ming ruslar, 32,3 ming ukrainlar, 55,5 ming yahudiylar, 22,6 ming nemislar 108,0 ming tatarlar ko'chib ketishdi. Respublikamizdan 1990-

² www.stat.uz

³ www.stat.uz



2003 yillarda jami 1,5 mln. kishi ko'chib ketdi, 500 ming kishi ko'chib keldi³⁸. Shunday qilib, migratsiyaning manfiy qoldig'i 10 mln. kishini tashkil etdi. O'zbekistonning ushbu yillardagi tashqi aloqalari asosan Rossiya, Ukraina va qo'shni Markaziy Osiyo respublikalari bilan bo'ldi. Migratsiyada qatnashganlarning jami Rossiya hissasiga 50,9%, Ukrainaga 12,9%, Qozog'istonga 10,9% boshqa Markaziy Osiyo respublikalariga 13,2% to'g'ri keldi. MDH davlatlaridan tashqaridagi xorij mamlakatlari hissasiga 8,4% to'g'ri keldi. O'zbekiston aholisi tashqi migratsiyasining manfiy qoldig'i ko'rsatkichlaridan Rossiya hissasiga 62,0%, Ukrainaga 20,4%, boshqa xorijiy mamlakatlarga 15,8% to'g'ri keldi. Tashqi migrantlarning asosiy ko'pchiligini ruslar, tatarlar, qrim tatarlari va yahudiylar tashkil qiladi. Bulardan tashqari mamlakatdan mesxetiya turklari, greklar, nemislar ham ko'chib ketishmoqda. Yahudiylar Isroil va AQShga, nemislar Germaniyaga, greklar Gresiyaga, ruslar Rossiyaga ko'chmoqdalar. 2000 yillardan keyingi davrda O'zbekistonda rusiyabon aholining ko'chib ketishi keskin kamaymoqda. Bundan tashqari mamlakatimizda ko'chib ketganlarning yana qaytib kelishi (reemigratsiya) sharoitlari kuzatilmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ichki migratsiya harakatlarining pasayishi kuzatilmoqda, uning asosiy sabablaridan biri, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitidagi murakkab sotsial-iqtisodiy o'zgarishlar jarayonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зайончковская Ж.А. Миграция населения из стран Центральной Азии. В книге: Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Социальные, правовые и гендерные аспекты. – Ташкент: Программа развития ООН в Узбекистане, 2008. – С.13.
2. Парманов Ф.Я. Миграция жараёнларини бошқаришда инсон омили. // Социология фанлари номзоди диссертация автореферати. – Т., 2012.
3. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий–ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990 – 2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011 – 2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2011.
4. www.stat.uz

